

O'ZBEKISTON TALIM TIZIMI: NORVEGIYA TALIMIDAN ANDOZALAR

Bozorov Islombek

islombekbozorov929@gmail.com

Annotatsiya: Insoniyat paydo bo'libdiki talimga ehtiyoj sezadi. Talim doimo rivojlanishdan to'xtamaydi. Xuddi shunday qadimdan o'zbek zaminida ilmiy ishlar hamda talim doimo rivojlanib kelgan. Mustaqillikdan so'ng yangi bosqichga qadam qo'ydi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov davrida ham ko'plab islohotlar o'tkazildi. Bunga misol qilib 1992-yilgi "Talim to'g'risidagi qonun", shuningdek, 1997-yildagi yangi tahririni misol qilib olishimiz mumkin. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ham ayniqsa muhim qarorlar qabul qilindi. Xususan 2016-yilda talim tizimining yangi ko'rinishga kirishi va xalqaro tajribalar asosida oliy hamda xalq talimining yo'lga qo'yilishi, xalqning katta qismini oliy malumotli qilishga bo'lgan harakatlar o'z samarasini bermoqda.

Ammo shuni ham takidlab o'tish joizki ushbu xorijiy texnologiyalar kiritishda ayrim kamchiliklar ro'y bermoqda. Shuning natijasida qilingan maqsadlarga erishish foizi kamroq bo'lmoqda. Buning sababi sifatida biz ayni paytdagi turli mamlakatlar aholisining qadriyatlaridagi farqlar hamda O'zbekistondagi moddiy tomonlama yetishmovchiliklarni aytishimiz mumkin. Bu kamchiliklarni tugatish uchun o'sha modellarga o'zgartirishlar kiritishga to'g'ri keladi.

Tayanch tushunchalar: "talim to'g'risidagi qonun", xalqaro tajriba, xorij texnologiyalari, talim modellar.

Kirish.

Har qanday bino qurilar ekan uning tagida poydevori bo'ladi. Bu poydevor qurilajak binoning qay darajada mustahkam bo'lishi, qay darajada qad rostlab baland bo'lishini taminlab beradi. Huddi shunday har bir sohada uning boshlang'ich bo'g'ini yani talimi bo'ladi. Talim qancha mustahkam tashkil etilgan bo'lsa, sohadagi samara ham shuncha yaxshi va bardavom bo'ladi. Davlat uchun talim tizimi bu uning rivojlanish omilidir. Shu boisdan davlat talimga muntazam islohot kiritadi hamda doimiy nazorat qiladi. Ayniqsa rivojlanayotgan O'zbekiston sharoitida Ta'lim juda muhim bo'g'in hisoblanadi. Ta'lim joyida qotib turmaydi va doimiy madernizatsiya talab qiladi. Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston respublikasi Kostitutsiyasi qabul qilingach xalqning majburiy va bepul talimi belgilab qo'yildi. Aniqrog'i uning 41-moddasiga ko'ra "har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul talim davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir". 1991-2017-yilgacha 9 yillik majburiy talim va 3 yillik kasbga yo'naltiruvchi talim yo'lga qo'yilgan.

2017-yili muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 12 yillik o'rta talim 11 yilga qisqartirildi va majburiy etib belgilandi. Shuningdek, 2017-yildan so'ng oliy talim sohasiga ham yangicha texnologiyalar olib kirildi. Misol uchun, oliy talimga Norvegiya talim tizimidagi "kredit modul" tizimi olib kirildi va joriy etildi. Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan "Harakatlar Strategiyasi" va "Tarqqiyot Strategiyasi" shu bilan birga yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi"da ham talimga katta

urg'u berilgan. Xususan yangi Konsitutsiyaning 50-moddasiga ko'ra har kim uchun talim kafolatlangan. Shuningdek, 2023-yil ham mos ravishda "Xalqqa etibor va sifatli talim yili" dep e'lon qilindi.

Mustaqillik yillarida xorijiy oliy talim muassalarining filiallari ham yo'lga qo'yildi. Masalan, 2002-yili Buyuk Britaniyaning Westminster universiteti, 2007-yili Singapur Menagement rivojlantirish instituti, 2009-yili Turin Politexnika universiteti tashkil etildi.

2017-yildan boshlab xususiy oliy o'quv markazlari ochish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ayni paytda ularning soni 72 tani tashkil etmoqda. Bularning hammasi aholini oliy malumotli bo'lgan qatlamini ko'paytirish va barcha sohalarida raqobatni oshirishga qaratilgan.

Talim islohotlaridagi samara

Mustaqillikdan so'ng yangi bir davlat uchun og'ir holat edi. Barcha sohalarida qayta qurishlar, tozalashlar bo'layotgan bir paytda 1992-yili "Ta'lim to'g'risidagi qonun" qabul qilindi. Oliy talimda ham ulkan o'zgarishlar ro'y berdi. Ilk shartnoma asosida o'qishga qabul qilishlar tashkil etildi. Oilaviy sharoiti og'irlar uchun mo'ljallangan sirtqi talim joriy etildi. Kuchli ijtimoiy siyosat yo'lida stipendiya atamasi ham oliy talimga kirib keldi. Shuncha o'zgarishlardan so'ng "Talim to'g'risidagi qonun"ni yangi tahrirda namoyon etilmasa ham bo'lmas edi. Va 1997-yili yangi tahrirdagi qonun ishga tushdi. Kadrlarning sonida va malakasidagi muammolar qilingan islohotlarning yetarli darajada samara bermasligiga olib keldi. Undan tashqari ota-onalarning farzandlariga yetarli vaqt ajratmasligi, ularning talimiga masuliyatsizlik bilan yondoshuvi bemadsad yoshlarning ko'payishiga olib keldi. Aksariyat yoshlar 12 yillik talimni bitirgach ishsizlik muammosiga duch kelishdi va bu bevosita davlat iqtisodiyotiga tasir etmay qolmadi. Ijtimoiy yordamga muhtoj tabaqalar ham oshdi. Chet elga ko'plab yoshlar ish izlab chiqq boshladi. Ayni shu davrda ishsizlikdan foydalangan holda odam savdosi ham avj ola boshladi. Kuchli ichki tartib intizom va mustahkam chegara hizmatlari tufayli tartib uslab turildi.

Bu o'z tasirini statitikalarda ham namoyon ettiki, 2002-yili oliy o'quv muassalariga kirish 19 foizdan 6,4 foizgacha kamaydi.

2002-yildan keyin talim tizimiga etibor oshdi. Chet el universitetlari filiallari ochila boshladi, davlat oliy o'quv yurtlari soni 63 taga yetti, ustiga-ustak davlat iqtisodiyoti ham tiklanayotgan bir paytda bu ayni muddao edi.

Agar talim bo'yicha BMT hisobotlriga yuzlanadigan bo'lsak aynan 2000-yillardan boshlab O'zbekistonda o'sish ro'y bergan. Islom Karimov davrida o'rtacha o'sish BMT indeksiga ko'ra 0,0063 ni tashkil etadi va normal holat hisoblanadi. Bu o'rtacha 1 foizni tashkil etadi.

Amaldagi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yildan 11 yillik talimga o'tish dasturini taminladi hamda bu orqali aholini oliy malumotli qilishni oshirishga harakat qilinmoqda va bu orqali sohalaridagi raqobatni oshirmoqchi edi.

Ammo bu holat ham ayrim "oliy malumotli"larning etiroziga sabab bo'lmoqda. Gap shundaki oliy talim mobaynida yaxshi o'zlashtira olmagan talabalar ish topa olmaslik ehtimoli mavjud. Aslida masalaning yechimi ham shu yerda. Endilikda shunchaki diplom olish uchun o'qishni yig'ishtirib, oliy talimda asl mutahasis bo'lib chiqish ko'ndalang

qo'yilmoqda. Shuning uchun ham xalq talimida ham oliy talimda ham xorijiy o'quv dasturlari olib kelindi.

Maktablarda kundalik.com joriy qilindi. Bu orqali end ota-onalar farzandini bemaol nazorat qila oladilar. Biroq bu tizimda ham kamchilik mavjud bo'lib bu xalqning bu tizimni hali yaxshi anglab yetmagani, targ'ibot ishlari yaxshi tashkil etilmagani. Albatta agar ota-onalar beetibor bo'lishsa shuncha qilinayotgan ishlardan foyda kam bo'ladi.

Oliy talim uchun Norvegiyaning kredit modul tizimi olib kirildi. Unga ko'ra talaba:

- Fanni muddatidan oldin yopishi;
- Yiqilgan fanida kredit miqdoriga ko'ra mablag' to'lagan holda qayta topshirishi;
- Fanlarni va o'qtuvchilarni tanlashi;
- O'quv mavsumi oldidan barcha materiallarga ega bo'lishi
- Masofadan turib o'zi haqidagi atroflicha malumotlarga ega bo'lishi mumkin edi.

Ammo yakunda bu tizimda ham muammolar yetali ekanligi malum bo'ldi. Aniqrog'I bu tizim O'zbekistonga kirib kelgach "o'zbeklashtirildi". Bu tizimning bizda faqat krediti qoldi xalos, moduli esa mavjud emas. Xolbuki biz Norvegiya talimini maqullagan ekanmiz, ularning tizimini bus-butkulligicha olishimiz kerak. Agar biz uni o'zimizga moslasak, oldingi holatimizga nisbatan moslagan bo'lamiz va uning foydasi rejalashtirilganidek bo'lmaydi.

Norvegiya talim tizimi

Norvegiya talimiga nazar tashlasak barcha tizim juda murakkab va mukammal yo'lga qo'yilgan. Maktab talimi 3 ga bo'lingan

- Barneskole talim bu boshlang'ich talim bo'li unda 1-7 sinflar o'qitilib rasmiy baho qo'yilmaydi va umumiy malumotlar va ingliz norveg tili o'rgatiladi.

- Ungdomskole talimi bu o'rta bosqich bo'li unda o'quvchilar tanlov fanlari orqali dars o'tishadi va baholari bevosita kelajakdagi ishlariga tasir etadi. Barneskole va Ungdomskole majburiy hisoblanadi.

- Videragaendi talimi yuqori o'rta maktab bo'lib, umumiy va kasbiy dasturlarga ega bo'lib, kasbiy dastur "2+2 modeli" degan tipik dasturda olib boriladi. 2 yil nazariy 1 yil shogirtlik 1 yil mutlaq ish faoliyatini olib boradi.

Oliy tali 23\5 ko'rinishida bo'lib 23 yoshdan katta, 5 yillik umumiy talim va ish tajribasiga ega bo'lishi kerak

Oliy tali 3 ga bo'linadi:

- 3 yil bakalavriat
- Magistratura 5 yil
- 8 yil PhD

Xullas skandinav yoshlari maktabni bitiriboq ishga jalb etiladi va oliy talim kamdan kam odamlarga nasib etadi.

Xuddi shu tizimga mos ravishda talim tizimimizni yo'lga qo'ysak yani qaysidir bosqichda o'zini yo'nalish topib shu bo'yicha tayyorlansa ham davlat o'z mablag'ini oqlaydi va shu sohagi sifat oshadi. Masalan, undomskole talimda davlat aholisining 5% duradgorlikni o'qib keyin o'qishni to'htatsa, o'sha 5% duradgorlikning mutahasislari

chiqadi va shu soha ildamlaydi. Bizda maktabdagi bilimlar mayli institutlarning bilimlarini to'g'ri yo'naltira olmayotgan talabalarimiz bor.

Xulosa

Agar biz haqiqatdan kuchli ta'lim tizimiga ega bo'lmoqchi bo'lsak avvalo kadrlar taminotiga urg'u berishimiz lozim. Yaqin bir necha yil ichida O'zbekistonda maktablarda ham faqat magistratura bitiruvchilari dars beradi deyilmoqda. Ammo o'quv yilini oshirgandan nima naf , agar o'qitish yaxshi tashkil etilmagan bo'lsa. Oliy talim bakalavrini o'zida ham kuchli dastur ishlab chiqilib uni targ'ib qilinsa ham kuchli kadrlar yetishib chiqadi.

Kadrlar muammosi bartaraf bo'lgach maktab talimiga isloh kiritsak maqasadga muvofiq bo'lar edi. Avvalo bolalarga boshlang'ich savod hamda bilim olishning ahamiyatini o'rgatishimiz kerak chunki maktabdagi hozir berilayotgan bilimlarning aksari shu kunning o'zidayoq o'chib ketadi hotiradan , hatto yil yakunidagi imtihinga borgach o'sha mavzu borligi ham esdan chiqadi va eng qizig'i o'quvchi o'zi bilim qidirib imtihondan o'tadi. Yanikim shu paytgacha o'quvchilarga davlat tomonidan ajratilgan investitsiya o'zini oqlamaydi. Bilim olishni o'rgatsak o'quvchilar sidqidildan harakat qiladi o'zi uchun , shu bilan birgalikda davlat uchun. Maktab talimining ohirgi 2 3 yilini mutahassislikka yo'naltirsak hozirgiga o'xshab o'quvchilar repititorlarga bormasdan davlat talimi orqali oliy talim muassasalariga kirish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Agar bu tizim joriy qilinsa jamiyatimizda ro'y beradigan hodisalar:

- Xalqning davlat talim tizimiga , umuman davlatga legitimligiga oshadi.
- Ishsizlik kamayadi , chunki maktab so'nggi bosqichini bitiruvchilari biror soha bo'yicha ham amaliy , ham nazariy bilimga ega bo'lishadi.
- Qo'shimcha talimlarga imkoniyati yo'qlar ham endi umidsizlikka tushmay oliy talimga kirish imkoniyati oshadi.
- Bu orqali qaysidir ma'noda tabaqalanish ham oldi olinadi.

Xulosa shundan iboratki , chet el talimini o'rganaylik va tahlil asosida yangi faqat o'zimizga tushadigan talim tizimini yarataylik. Chunki chet el tizimini ko'chirib o'tkazsak butkul o'tkazishimiz kerak , butkul o'tkazish uchun esa bizda imkoniyatlarimiz yetmay qolishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- "talim to'g'risidagi qonun" – lex.uz
- "talim to'g'risidagi qonun" (yangi tahrirda) – tashpmi.uz
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – lex.uz
- General information about education in Norway – nokut.no
- Education in Norway – wikipediya.org
- International schools and the education system in Norway – internation.org